


Farg'ona viloyatining CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-fevral dastlabki ma'lumot)


Farg'ona viloyati bo'yicha joriy yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 1783,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,8 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 196,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 6,7%), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 1587,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 160,9 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,7 %ga o'sgan) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so'm)**



2019 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari, Farg'ona, Quvasoy shaharlarida, shuningdek, Bag'dod tumanida qayd etildi.


Chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,7 %ga o'sdi va 196,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,0 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1587,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 2,3 %ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 89,0 %ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**



■ Kichik tadbirkorlik
■ Yirik korxonalar


Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Qo'shtepa t (99,7%), Sox' t (99,0%), Uchko'prik (98,6) Furqat t (98,4 %) Beshariq t (98,4%) tumanlarida yuqori ulushga egaligi ko`rinib turibdi.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 11,0% ni tashkil etib, eng katta ulushi Farg`na sh (24,4%), Qo`qon sh (12,2%), shaxarlari va Bag'dod tumani (18,8%) da kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Farg'ona viloyati	196,1	106,7	1587,3	102,3
<i>shaharlar</i>				
Farg'ona	116,9	1,6M	362,4	97,1
Qo`qon	32,1	57,4	229,9	109,4
Quvasoy	1,2	1,2M	39,2	104,4
Marg'ilon	7,9	43,5	122,4	108,6
<i>tumanlar</i>				
Oltiariq	2,1	65,6	59,8	102,1
Qo`shtepa	0,2	18,1 M	81,9	99,8
Bag`dod	13,3	3,2M	57,5	103,2
Buvayda	1,1	61,1	61,5	101,6
Beshariq	1,0	58,3	63,7	101,6
Quva	6,1	3,0M	82,5	98,2
Uchko`prik	0,9	101,7	64,3	99,7
Rishton	2,7	37,0	55,5	107,5
So`x	0,2	48,7	26,8	102,8
Toshloq	3,4	106,9	43,7	99,8
O`zbekiston	1,4	58,4	52,2	103,0
Farg'ona t	1,6	33,8	62,0	104,7
Dang`ara	1,2	79,3	39,6	102,6
Furqat	0,5	86,5	32,6	101,7
Yozyovon	1,6	66,7	49,0	104,3

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyati chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2019 yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 488,4 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,1 %ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-fevral oyida o'tgan yilga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkilar Farg'ona (1705,3 ming.so'm), Qo'qon (1060,7 ming. so'm) va Marg'ilon (567,6 ming.so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar O'zbekiston t (232,0 ming.so'm), Dang'ara t (243,2 ming.so'm) va Toshloq t (241,8 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich shaharlar va tumanlar kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Farg'ona viloyati	488,4	101,1
<i>shaharlar</i>		
Farg'ona	1705,3	106,0
Qo`qon	1060,7	97,3
Quvasoy	445,9	103,2
Marg'ilon	567,6	98,3
<i>tumanlar</i>		
Oltiariq	302,5	98,7
Qo'shtepa	447,4	98,3
Bag'dod	341,2	1,2M
Buvayda	284,4	98,7
Beshariq	293,0	98,8
Quva	354,3	101,3
Uchko`prik	295,2	97,9
Rishton	297,9	97,0
So`x	358,9	99,7
Toshloq	241,8	98,5
O'zbekiston	232,0	99,2
Farg'ona t	308,7	98,0
Dang'ara	243,2	100,0
Furqat	289,1	99,8
Yozyovon	473,9	100,7

Jumladan, 2019 yilning yanvar-fevral oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,2 % ni tashkil etib, 21,4 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 96,5 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


FARG'ONA VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-fevral)

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 498,6 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 2,7 %ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra 409,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,1 % ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 82,0 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa shahar va tumanlar bilan taqqoslaganda, Marg'ilon shahar (100,0%), Quvasoy shahar (100,0%), Qo'shtepa t (100,0%), Furqat t (100,0%), Beshariq t (100,0%) va Quva t (100,0%) tumanlarida yuqori bo'lgan.

Yirik va kichik korxonalar ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




■ Yirik korxonadlar
■ Kichik korxonalar

Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 18,0 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati So'x (9,8%), Uchko'prik(11,8%), Bog'dod (32,3%) tumanlari va Farg'ona (56,3%) shahrida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Farg'ona viloyati	498,7	102,7	89,6	116,4	409,1	101,1
shaharlar						
Farg'ona	144,1	95,6	81,21	124,8	62,9	73,4
Qo'qon	98,3	1,3 M	4,53	71,5	93,7	1,3M
Quvasoy	5,4	55,5	0,00	-	5,4	55,5
Marg'ilon	70,7	1,1M	0,03	26,1	70,7	1,1M
tumanlar						
Oltiariq	17,8	1,6M	0,04	42,2	17,7	1,6M
Qo'shtepa	0,1	1,1M	0,00	-	0,1	1,1M
Bag'dod	9,0	1,4 M	2,91	68,8	6,1	2,6 M
Buvayda	13,5	1,5	0,00	-	13,5	1,5
Beshariq	17,1	99,1	0,00	-	17,1	99,1
Quva	4,8	1,8	0,00	-	4,8	1,8M
Uchko'prik	11,4	1,4	0,20	90,0	11,2	1,1M
Rishton	3,6	101,9	0,08	58,0	3,5	103,6
So'x	0,2	80,5	0,02	17,7	0,2	1,3 M
Toshloq	36,6	103,1	0,37	1,1	36,2	103,1
O'zbekiston	11,7	78,9	0,02	25,9	11,7	79,2
Farg'ona t	27,0	88,5	0,07	52,8	27,0	88,7
Dang'ara	16,9	50,5	0,08	1,2	16,8	50,4
Furqat	5,5	1,8	0,00	-	5,5	1,8 M
Yozyovon	5,1	70,3	0,05	84,7	5,1	70,2

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari, (%)**



Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur`ati Quvasoy shahar(55,5%) va Yozyovon t (70,3%), Dang'ara t (50,5%) tumanida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo`limi

Tel.:71-230-87-18